



UAZ PATRIOT HAMDA UAZ PIKAP AVTOMOBILLARINING YARATILISH TARIXI VA AHAMIYATI

NAZAROV A.I.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv
markazi Jangovar va moddiy – texnik ta'minoti tayyorgarligi sikli
o'qituvchisi Qurolli Kuchlar xizmatchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19001060>

ARTICLE INFO

Received: 1st March 2026

Accepted: 5th March 2026

Published: 13th March 2026

KEYWORDS

UAZ Patriot, UAZ Pikap,
avtomobilsozlik, yo'lsiz xudud,
modernizatsiya, konstruksiya,
Rossiya avtomobil sanoati.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada Rossiya avtomobilsozlik sanoatining muhim namunasi xisoblangan "UAZ Patriot" va "UAZ Pikap" avtomobillarining yaratilish tarixi, konstruktiv xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari taxlil qilingan. Maqolada ushbu modellarning ishlab chiqilish jarayoni, texnik takomillashuv bosqichlari, bozor talablariga moslashuvi xamda zamonaviy modernizatsiya ishlari ilmiy-nazariy jixatdan yoritilgan. Tadqiqot natijalari mazkur avtomobillarning yo'lsiz xududlarda samarali foydalanis

Avtomobilsozlik sanoati iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri xisoblanadi. Hozirda, zamonaviy transport tizimining rivojlantirish bilan bir qatorda turli tabiiy va geografik sharoitlarda ishlay oladigan transport vositalariga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. yo'ltanlamas avtomabillar muhum o'rin tutadi. Ayniqsa, tog'li hududlar, cho'l zonalari, o'rmonlar yoki infratuzilmasi yaxshi rivojlanmagan hududlarda yuqori o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan avtomobillar muhum ahamiyatga ega.

Bunday transport vositalari nafaqat fuqorolik sohasida, balki harbiy, qutqaruv, geologiya, qurilish va qishloq xo'jaligi sohalarida ham keng qo'llaniladi. Shu nuqtai nazardan, Rassiyaning Ulyanovsk avtomobil zavodida ishlab chiqarilgan "UAZ Patriot" va "UAZ Pikap" modellari muhum transport vositalari hisoblanadi.

UAZ Patriot avtomobillarining yaratilish tarixi

"UAZ Patriot" avtomobili ilk bor 2005 yilda ishlab chiqarishga joriy etildi. Ushbu model avvalgi UAZ-3162 Simbir asosida takomillashtirilgan xolda yaratilgan. Avtomobil ramali konstruksiyaga ega bo'lib, og'ir yo'l sharoitlarida ishlashga mo'ljallangan.



Patriot modeli ishlab chiqilganda quyidagi asosiy maqsadlar ko'zlangan:

- yo'lsiz xududlarda yuqori o'tish qobiliyatini ta'minlash;
- ichki qulaylik darajasini oshirish;
- zamonaviy dizayn va xavfsizlik tizimlarini joriy etish.

2014, 2016 va 2019 yillarda model bir necha marta reystayling qilindi. Unda dvigatellar takomillashtirildi, salon ergonomikasi yaxshilandi va elektron boshqaruv tizimlari joriy etildi.

UAZ Pikap avtomobillarining yaratilish tarixi

"UAZ Pikap" modeli 2008 yilda "UAZ Patriot" bazasida yaratilgan bo'lib, yuk tashish imkoniyati kengaytirilgan versiya xisoblanadi. U ramali shassisi va to'liq yuritmal (4x4) tizimi bilan ajralib turadi.

Pikap modeli qishloq xo'jaligi, sanoat va xarbiy soxalarda faol qo'llanilmoqda. Uning asosiy avzalliklari:



yuk

platformasining mavjudligi;

- mustaxkam osma tizimi;
- yuqori klirens va chidamli konstruksiya.

Model yillar davomida texnik jixatdan takomillashtirilib, zamonaviy ekologik standartlarga moslashtirildi.

Konstruktiv va texnik xususiyatlar taxlili

Xar ikki model ramali konstruksiya asosida ishlab chiqarilgan bo'lib, bu ularning mustaxkamligini ta'minlaydi.

Asosiy texnik ko'rsatkichlar:

- 2.7 litrli benzin dvigateli;

- 5 pog'onali mexanik uzatmalar qutisi;
- To'liq yuritmalı transmissiya;
- Yuqori yo'l o'tish qobiliyati (off-road).

So'nggi yillarda elektron stabilizatsiya tizimi (YeSP), xavfsizlik yostiqlchalari va multimedia tizimlari joriy qilindi.

Bu avtomabillar yuqori o'tkazuvchanlik, mustahkam konstruksiya va ko'p vazifalilik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Harbiy sohada esa yo'ltanlamaslik avtomabillar harbiy logistikada muhim o'rin tutadi. Ular qiyin geografik sharoitlarda shaxsiy tarkibni va yuklarni tashish uchun ishlatiladi. Bugungi kunda mazkur avtotransportlardan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalarida maxsus xizmatlarni samarali qo'llanilmoqda.

Ushbu transport vositalari quyidagi vazifalar uchun qo'llaniladi:

jamoat tartibini saqlash – shahar va tumanlarda tinchlikni ta'minlash, ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta'minlashda.

harbiy maxsus operatsiyalar – chegara hududlari, favqulodda vaziyatlar va favqulodda tabiiy sharoitlarda harakatlanish.

logistik va tashish – shaxsiy tarkib va zarur jihozlarni tez va samarali tashtish imkoniyati.

Milliy gvardiya xizmatchilari uchun ushbu avtomabillar yuqori klirens va to'liq g'ildirakli yuritma imkoniyati tufayli shahar ichki yo'llari, tog'li va qishloq hududlari, shuningdek yo'l holati yomon bo'lgan hududlarda ham samarali qo'llaniladi. Bu ularning jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Qishloq xo'jaligida esa qishloq hududlarida yo'l infratuzilmasi yaxshi rivojlanmagan bo'lishi mumkin. Shu sababli pikap turidagi avtomabillar fermerlar uchun juda qulay transport vositasi hisoblanadi.

Ekspeditsiya va geologiya sohasida geologik tadqiqotlar va ekspeditsiyalar ko'pincha qiyin hududlarda o'tkaziladi. Ushbu avtomabillar bunday sharoitlarda ishonchli transport vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, UAZ avtomabillari konstruksiyasining soddaligi va mustahkamligi ularni qiyin sharoitlarda ishlash uchun juda mos keladi. Bundan tashqari, ularning texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari ko'plab raqobatchi modellarga nisbatan past.

Shu bilan birga, zamonaviy bozorda raqobat kuchayib bormoqda. Yapon va Kareya avtomabillari yuqori texnologiyalar va qulaylik jihatdan ustunlikka ega. Shu sababli UAZ kompaniyasi ham o'z modellarini doimiy ravishda modernizatsiya qilib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, UAZ "Patriot" va UAZ "Pikap" yo'ltanlamas transport vositalari orasida muhim o'rin egallaydi. Ular mustahkam konstruksiyasi, yuqori o'tkazuvchanligi va ko'p funksiyaliligi bilan ajralib turadi.

Ushbu avtomabillar harbiy, sanoat, qishloq xo'jaligi va maxsus xizmat sohalarida samarali qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, ularning doimiy modernizatsiya qilinashi kelajakda ham ularning ahamiyatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ulyanovskiy avtomobilnyy zavod (UAZ). Rasmiy sayt materiallari va texnik xujjatlar – Ulyanovsk 2005-2023.
2. UAZ Patriot. Foydalanish qo'llanmasi va texnik xarakteristikalar to'plami. – Ulyanovsk: UAZ nashri 2019.
3. Avtomobili UAZ. Istoriya i sovremennost. – Moskva. Mashinostroyeniye 2015.